



O'ZBEKISTON TURIZM SOHASIDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MOLİYALASHTIRISHNING ROLI

Xusniddinov Nuriddin Faxriddin o'g'li

Toshkent shahridagi Amity universiteti

ORCID: 0000-0004-1752-5807

khusniddiov77@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sektorining investitsiya jozibadorligini oshirishda strategik moliyalashtirishning roli tahlil qilinadi. Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivoji, xalqaro tajriba va milliy infratuzilmaning holati asosida turizm loyihalarini barqaror moliyalashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, investitsiya jozibadorligi, strategik moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, moliyaviy mexanizmlar.

РОЛЬ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА

Хусниддинов Нуриддин Фахриддин угли

Университет Амита в Ташкенте

Аннотация. В статье анализируется роль стратегического финансирования в повышении инвестиционной привлекательности туристического сектора. На основе диверсификации источников финансирования, развития механизмов государственно-частного партнёрства, международного опыта и состояния национальной инфраструктуры разработаны предложения по обеспечению устойчивого финансирования туристических проектов.

Ключевые слова: туризм, инвестиционная привлекательность, стратегическое финансирование, государственно-частное партнёрство, финансовые механизмы.

THE ROLE OF STRATEGIC FINANCING IN ENHANCING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF UZBEKISTAN'S TOURISM SECTOR

Khusniddinov Nuriddin Fakhriddin ugli

Amity University in Tashkent

Abstract. This article examines the role of strategic financing in enhancing the investment attractiveness of the tourism sector. Based on the diversification of funding sources, the development of public-private partnership mechanisms, international experience, and the current state of national infrastructure, the paper proposes recommendations for ensuring sustainable financing of tourism projects.

Keywords: tourism, investment attractiveness, strategic financing, public-private partnership, financial mechanisms.

Kirish.

So'nggi o'n yilliklarda turizm global miqyosda strategik tarmoqlardan biriga aylanib, ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash, valyuta tushumlarini ko'paytirish va ijobiy imij yaratish vositasi sifatida qaralmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm yalpi ichki mahsulotda o'rtacha 10 foiz ulushga, global bandlikda esa 8 foizga yaqin hissa qo'shadi. Bunday sharoitda milliy iqtisodiy siyosatni diversifikatsiyalashni maqsad qilgan O'zbekiston uchun ham turizm sektori strategik ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda (UNWTO, 2023).

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab olib borilayotgan islohotlar natijasida turizm salohiyati davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida shakllandi. Sayyohlar oqimining ko'payishi, viza rejimining liberallasuvi, "Ipak yo'li" turizm yo'nalishlari va ziyorat turizmining rivojlanishi bu sohadagi islohotlarning amaliy natijalaridir. Biroq, ushbu sektorda sarmoya jalb qilish bo'yicha yetarli institutsional va moliyaviy mexanizmlarning shakllanmagani, moliyalashtirish vositalarining cheklanganligi, davlat-xususiy sheriklik loyihalarining kamligi, turizm obyektlari infratuzilmasining sust rivojlanganligi kabi omillar ushbu tarmoqning investitsion jozibadorligini pasaytirib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan, turizm sohasining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda strategik moliyalashtirish vositalarini ishlab chiqish va joriy etish dolzarb masala sifatida maydonga chiqmoqda. Strategik moliyalashtirish — bu faqat moliyaviy resurslar bilan ta'minlash emas, balki investitsiya xavfini minimallashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, infratuzilmaviy loyihalarni uzoq muddatli kapital orqali qo'llab-quvvatlash, investorlar uchun kafolatli va ishonchli moliyaviy muhit yaratishni anglatadi.

Bugungi kunda jahon amaliyotida turizmni moliyalashtirishda davlat kafolatlari, suveren investitsiya fondlari, xalqaro moliya institutlari kredit liniyalari, obligatsion moliyalashtirish va davlat-xususiy sheriklik (PPP) keng qo'llanilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Turizm sektorining iqtisodiyotdagi o'rni tobora ortib borayotgan sharoitda, ushbu sohaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investitsiyalar oqimini jalb qilish va kapitaldan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar global miqyosda keng qamrovli tus olmoqda. Xususan, strategik moliyalashtirish mexanizmlarining turizm sohasidagi samaradorligini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ushbu sohaga investitsiyalarni rag'batlantirishda institutsional va moliyaviy omillarning hal qiluvchi rolini ko'rsatmoqda.

Dunning (1993) tomonidan ilgari surilgan OLI (Ownership-Location-Internalization) paradigmasida investorlar uchun "location advantages" – ya'ni hududiy afzalliklar turizm investitsiyalari uchun muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Bu afzalliklar infratuzilmaning rivojlanganligi, siyosiy barqarorlik, fiskal siyosatdagi qulayliklar, xavf darajasining pastligi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Gannon, Baxter va Dwyer (2017) o'z tadqiqotlarida moliyalashtirish strategiyalarining turizm loyihalarining uzoq muddatli barqarorligiga ta'sirini o'rganib, davlat kafolatlari, subsidiyalar va soliq imtiyozlari asosidagi moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarini investitsion riskni kamaytiruvchi eng muhim omillar sifatida ajratib ko'rsatganlar.

UNWTO va OECD (2020) tomonidan taqdim etilgan yillik hisobotda esa turizmni moliyalashtirishda innovatsion yondashuvlarning (masalan, yashil obligatsiyalar, raqamli investitsiya platformalari, public crowdfunding) o'sib borayotgan ahamiyati ta'kidlanadi. Xususan, davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida turizm infratuzilmasini moliyalashtirish zamonaviy siyosatning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.


Ritchie & Crouch (2005) tomonidan ishlab chiqilgan "Turizm raqobatbardoshligi modeli"da investitsion jozibadorlikni oshirish uchun makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional sifat va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligi hal qiluvchi omillar sifatida belgilangan. Bu

model bo'yicha, investitsiyalarni jalb qilish faqat marketing yoki infratuzilma bilan emas, balki strategik rejalashtirilgan moliyalashtirish siyosatlarini orqali amalga oshiriladi.

Dunyo bankining (World Bank, 2022) "Tourism for Development" nomli hisobotida esa rivojlanayotgan mamlakatlarda turizmni moliyalashtirish uchun ilg'or amaliyotlar sifatida: (1) suveren kafolatli kreditlar, (2) ijtimoiy ahamiyatga ega infratuzilma loyihalarini subsidiyalash va (3) turizm loyihalarini inklyuziv moliyalashtirish platformalari orqali amalga oshirish tavsiya etilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Turizm sohasida investitsiya jozibadorligini oshirishning asosiy omillaridan biri - bu sektorni barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish bilan ta'minlashdir. Strategik moliyalashtirish mexanizmlarining samarali ishlashi investitsiya xavfini kamaytirish, investorlar ishonchini oshirish, infratuzilma rivojlanishini tezlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.




1-rasm. Turizm korxonlarini moliyalashtirish manbalari

Yuqoridagi rasmda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda qo'llaniladigan asosiy moliyalashtirish manbalari tasniflangan bo'lib, ular uchta asosiy yo'nalishga ajratilgan: o'z mablag'lari, maqsadli (ichki) o'z mablag'lari va tashqi (qarz) mablag'lar.

O'z mablag'lari tarkibida ustav kapitali, joriy faoliyatdan olingan daromad va amortizatsiya fondlari mavjud bo'lib, bu manbalar ichki moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqsadli moliyalashtirish vositalari — ya'ni kelgusi xarajatlar uchun rezerv mablag'lari, sug'urta badallari va maqsadli moliyalashtirish mexanizmlari —

risklarni boshqarish va rejalashtirilgan investitsion faoliyatni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Qarz mablag'lari bo'limi esa uzoq va qisqa muddatli kreditlar orqali loyihalarning tashqi moliyalashtirish salohiyatini namoyon qiladi. Ushbu manbalar odatda katta hajmli turizm yoki infratuzilma loyihalarida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularni oqilona boshqarish moliyaviy barqarorlik uchun zarurdir.



2-rasm. 2023- yilda kiruvchi, chiquvchi va ichki turizmning asosiy ko'rsatkichlari

2023-yil yakunlari bo'yicha kiruvchi, chiquvchi va ichki turizm ko'rsatkichlarining tahlili O'zbekistonda turizm sohasida barqaror tiklanish va o'sish tendensiyalarining kuchayganini ko'rsatmoqda. Grafik ma'lumotlariga ko'ra, kiruvchi turizm 6626,3 ming kishiga yetib, pandemiyadan oldingi 2019-yildagi 6748,5 minglik darajaga deyarli yaqinlashgan. Bu esa xalqaro sayyohlar oqimi tiklanayotganini anglatadi.

Chiquvchi turizm ham sezilarli darajada tiklanib, 4787,4 ming kishini tashkil qilgan va bu 2022-yildagidan ko'proqdir. Biroq ayniqsa e'tiborni tortadigan jihat — ichki turizmning barqaror va yuqori sur'atlarda o'sayotganidir: 2023-yilda ichki sayyohlar soni 5112,5 ming kishiga yetib, 2019-yilga nisbatan deyarli ikki baravar oshgan.

Ushbu dinamik o'sishlar iqtisodiy faollik tiklanayotgani, infratuzilma rivojlanayotganini va moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarining ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ichki va kiruvchi turizmning nisbiy balansini saqlash, ularni strategik moliyalashtirish orqali yanada rag'batlantirish zaruriyati saqlanib qolmoqda.

Xulosa va takliflar.

Turizm sektorida investitsiya jozibadorligini oshirish uchun strategik moliyalashtirish mexanizmlarini chuqur va tizimli yondashuv asosida shakllantirish lozim. Avvalo, davlat darajasida turizm sohasidagi loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun kafolatli fond tashkil etilishi zarur. Bunday fondlar xorijiy investorlar ishonchini oshiradi va uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, fond bozorlarida "turizm obligatsiyalari" chiqarish, ya'ni tematik moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish orqali soha uchun muqobil resurslar jalb etish mumkin.

Ikkinchidan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda maxsus kredit liniyalari va grant dasturlarini ishga tushirish orqali kichik va o'rta turizm subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Uchinchi jihat sifatida davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarga soliq imtiyozlari, yer ajratish va reglamentlashtirish jarayonlarini soddalashtirish orqali rag'batlantiruvchi muhit yaratish muhimdir. To'rtinchidan, turizm infratuzilmasini raqamlashtirish, mehmonxonalar, transport va logistika xizmatlarini zamonaviy moliyaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash orqali investorlar uchun xizmat sifati va xavfsizligiga oid kafolatlar mustahkamlanishi kerak.

Shuningdek, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan subyektlar uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish, ularni grantlar, loyihaviy moliyalashtirish va obligatsiyalar bozori haqida axborot bilan muntazam ta'minlab borish strategik moliyalashtirish jarayonining muhim elementi hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, turizm sektori uchun investitsiya jozibadorligini oshirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki institutsional va strategik moliyaviy yondashuvlar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston sharoitida bu sohada resurslar yetarli bo'lishiga qaramasdan, ularni samarali boshqarish, uzoq muddatli strategik moliyalashtirish asoslarini yaratish va investorlar uchun kafolatli muhitni shakllantirish borasida hali ko'p ishlar amalga oshirilishi zarur.

Strategik moliyalashtirish vositalarining joriy etilishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengaytirilishi va zamonaviy moliyaviy infratuzilmaning shakllanishi orqali turizm sohasi real iqtisodiyotning yuqori daromadli va barqaror tarmog'iga aylanishi mumkin. Ushbu maqolada ilgari surilgan takliflar investitsiya jozibadorligini oshirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Dunning, J. H. (1993). *Multinational Enterprises and the Global Economy*. Addison-Wesley Publishing.

Gannon, J., Baxter, I., & Dwyer, L. (2017). *Tourism Investment and Financing: A Pathway to Tourism Growth*. *Journal of Travel Research*, 56(4), 481–493.

Ritchie, J. R. B., & Crouch, G. I. (2005). *The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective*. CABI Publishing.

UNWTO & OECD. (2020). *Tourism Trends and Policies 2020*. Paris: OECD Publishing.

UNWTO (2023). *World Tourism Barometer*. United Nations World Tourism Organization.

World Bank. (2022). *Tourism for Development: Pathways to Sustainability*. Washington, D.C.